SURXONDARYO VILOYATIDA AHOLI BANDLIGI VA MEHNAT BOZORI KO‘RSATKICHLARINING STATISTIK TAHLILI

Tursunov Farxod Baxodir o‘g‘li
Termiz davlat universiteti
farxoddd1007@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatida aholi bandligi va mehnat bozori asosiy ko‘rsatkichlarining 2015–2024-yillardagi dinamikasi statistik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda mehnat resurslari, iqtisodiy faol aholi, band aholi, ishsiz aholi va ishsizlik darajasi kabi asosiy ko‘rsatkichlarning o‘zgarish tendensiyalari o‘rganilgan. Statistik taqqoslash, dinamik qatorlar va nisbiy ko‘rsatkichlarni hisoblash usullari asosida hudud mehnat bozorida yuz bergan miqdoriy va tarkibiy o‘zgarishlarga baho berilgan. Tahlil natijalari so‘nggi yillarda band aholi sonining o‘sishi hamda ishsizlar soni va ishsizlik darajasining pasayish tendensiyasi shakllanganini ko‘rsatgan. Shuningdek, iqtisodiy faol aholi dinamikasidagi o‘zgarishlarni bandlik va ishsizlik ko‘rsatkichlari bilan kompleks baholash zarurligi asoslangan. Tadqiqot natijalari asosida hududda mehnat resurslaridan samarali foydalanish va barqaror bandlikni ta’minlashga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar*: mehnat bozori, aholi bandligi, mehnat resurslari, iqtisodiy faol aholi, band aholi, ishsizlik, ishsizlik darajasi, iqtisodiy faollik, dinamik qator, statistik tahlil, Surxondaryo viloyati.*

Аннотация. *В статье проведен статистический анализ динамики основных показателей занятости населения и рынка труда Сурхандарьинской области за 2015–2024 годы. В исследовании изучены тенденции изменения основных показателей, включая трудовые ресурсы, экономически активное население, занятое население, численность безработных и уровень безработицы. На основе методов статистического сравнения, анализа динамических рядов и расчета относительных показателей дана оценка количественным и структурным изменениям, произошедшим на региональном рынке труда. Результаты анализа показали, что в последние годы сформировалась тенденция роста численности занятого населения и снижения численности безработных и уровня безработицы. Обоснована*

необходимость комплексной оценки динамики экономически активного населения во взаимосвязи с показателями занятости и безработицы. По результатам исследования сформулированы предложения, направленные на эффективное использование трудовых ресурсов и обеспечение устойчивой занятости населения региона.

***Ключевые слова**: рынок труда, занятость населения, трудовые ресурсы, экономически активное население, занятое население, безработица, уровень безработицы, экономическая активность, динамический ряд, статистический анализ, Сурхандарьинская область.*

***Abstract.** This article provides a statistical analysis of the dynamics of the main employment and labor market indicators in the Surkhandarya region for 2015–2024. The study examines trends in key indicators, including labor resources, economically active population, employed population, unemployed population, and the unemployment rate. Statistical comparison, time-series analysis, and relative indicators are used to assess quantitative and structural changes in the regional labor market. The results indicate a recent trend toward an increase in the number of employed people and a decline in both the number of unemployed people and the unemployment rate. The study also substantiates the need for a comprehensive assessment of changes in the economically active population in conjunction with employment and unemployment indicators. Based on the findings, recommendations are proposed to improve the efficient use of labor resources and promote sustainable employment in the region.*

***Keywords:** labor market, employment, labor resources, economically active population, employed population, unemployment, unemployment rate, economic activity, time series, statistical analysis, Surkhandarya region.*

KIRISH. Aholi bandligi va mehnat bozori holati hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini ifodalovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Mehnat resurslaridan samarali foydalanish, iqtisodiy faol aholining munosib ish o‘rinlari bilan ta’minlanishi, ishsizlik darajasining maqbul chegaralarda saqlanishi hamda yangi ish o‘rinlarining yaratilishi aholi farovonligini oshirishning muhim shartlaridan sanaladi. Shu jihatdan hududiy mehnat bozorida yuz berayotgan o‘zgarishlarni statistik jihatdan o‘rganish va ularning asosiy tendensiyalarini aniqlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Aholi bandligini ta’minlash masalasi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev: “2025-yil bandlikni ta’minlash va kambag‘allikni kamaytirishda eng muhim va hal qiluvchi yil bo‘ladi”,

deb ta’kidlagan.[1] Mazkur fikr aholi bandligini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va mehnat resurslaridan samarali foydalanish masalalarining bugungi kundagi dolzarbligini ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, hududlar kesimida mehnat bozori ko‘rsatkichlarining holati va dinamikasini statistik jihatdan tadqiq etish alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Surxondaryo viloyatida demografik jarayonlarning faolligi va mehnat resurslarining shakllanishi hudud mehnat bozoriga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Mehnatga layoqatli aholining iqtisodiy faoliyatga jalb qilinishi, bandlikning tarmoqlar bo‘yicha taqsimlanishi, ishsizlik holati hamda iqtisodiy faol va nofaol aholi tarkibidagi o‘zgarishlar viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlarini belgilovchi omillar qatoriga kiradi. Mazkur jarayonlarni statistik ko‘rsatkichlar asosida baholash mehnat bozorida shakllanayotgan tendensiyalarni aniqlash, mavjud muammolarni asoslash va bandlikni oshirish imkoniyatlarini belgilashga xizmat qiladi. Mehnat bozori ko‘rsatkichlarini dinamik jihatdan tahlil qilish alohida ahamiyatga ega. Chunki ma’lum bir davrdagi band yoki ishsiz aholi sonining o‘zi hudud mehnat bozoridagi jarayonlarni to‘liq ifodalamaydi. Ko‘rsatkichlarning bir necha yillik o‘zgarishini o‘rganish orqali mehnat resurslari, iqtisodiy faol aholi, bandlik va ishsizlik holatida yuz berayotgan tarkibiy hamda miqdoriy o‘zgarishlarni aniqlash mumkin. Bunday statistik tahlil hudud mehnat bozorining rivojlanish yo‘nalishlarini kompleks baholash imkonini beradi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi Surxondaryo viloyatida aholi bandligi va mehnat bozori ko‘rsatkichlarining 2015–2024-yillardagi dinamikasini statistik jihatdan tahlil qilish, ularning uzoq muddatli o‘zgarish tendensiyalarini aniqlash hamda hududda bandlikni ta’minlash bilan bog‘liq jarayonlarni baholashdan iborat. Tadqiqot doirasida mehnat resurslari, iqtisodiy faol aholi, band aholi, ishsiz aholi va iqtisodiy nofaol aholi ko‘rsatkichlarining o‘n yillik dinamikasi o‘rganilib, ular asosida viloyat mehnat bozorida yuz bergan asosiy miqdoriy va tarkibiy o‘zgarishlarga statistik baho beriladi.[2]

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI. Aholi bandligi va mehnat bozori muammolari iqtisodiy tadqiqotlarda muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanib, ushbu masalalar iqtisodiy o‘sish, mehnat resurslaridan samarali foydalanish, ishsizlikni kamaytirish va aholi farovonligini oshirish bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganiladi. Mehnat bozorining shakllanishi, avvalo, ishchi kuchiga bo‘lgan talab va taklifning o‘zaro nisbatiga bog‘liq bo‘lib, demografik jarayonlar, iqtisodiy faollik, yangi ish o‘rinlarining yaratilishi hamda hududlarning iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari uning asosiy omillari sifatida namoyon bo‘ladi.

F. Jo‘rayev va G‘. Aralov tomonidan mehnat bozorini shakllantirishning hududiy xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotda aholi soni, iqtisodiy faol aholi, bandlik va ishsizlik darajasi, shuningdek, shahar va qishloq aholisi nisbatining o‘zgarishi hududiy mehnat bozorini shakllantiruvchi muhim omillar sifatida baholangan. Mualliflar mehnat bozori ko‘rsatkichlarini hududlar kesimida o‘rganish orqali iqtisodiy faol aholi va ishsizlik ko‘rsatkichlarining o‘zgarishida hududiy tafovutlar mavjudligini asoslab berganlar.[3]

Surxondaryo viloyati mehnat bozori bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda ham hududning demografik va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlariga alohida e’tibor qaratilgan. Jumladan, hududiy mehnat resurslari harakatchanligi va bandlik barqarorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlarda mehnat resurslari, hududiy bandlik va mehnat bozoridagi o‘zgarishlarni statistik usullar asosida baholash zarurligi ko‘rsatib berilgan. Boshqa tadqiqotlarda esa Surxondaryo viloyati mehnat bozorining rivojlanishiga hududiy yalpi mahsulot, investitsiyalar, sanoat ishlab chiqarishi, xizmatlar sohasi, kichik biznes va ish haqi kabi ijtimoiy-iqtisodiy omillarning ta’siri ekonometrik yondashuvlar asosida o‘rganilgan.

O‘zbekistonda bandlikni ta’minlash masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlarda mehnat bozorida samarali bandlikni shakllantirish, ishsizlikni qisqartirish, ishchi kuchiga talab va taklif o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash hamda yangi ish o‘rinlarini yaratish ustuvor vazifalar sifatida qayd etiladi. Shuningdek, mehnat bozorini tartibga solishda kasbiy tayyorlash va qayta tayyorlash, yoshlar bandligini ta’minlash, bandlik xizmatlarini takomillashtirish hamda faol mehnat bozori siyosati vositalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega ekanligi ilmiy tadqiqotlarda asoslab berilgan. Xalqaro mehnat tashkiloti yondashuvlarida ham mehnat bozori holatini baholashda bandlik va ishsizlik ko‘rsatkichlari bilan bir qatorda mehnat statistikasi ma’lumotlarining sifati va ishonchliligiga katta ahamiyat beriladi. Mehnat bozoridagi jarayonlarni muntazam statistik kuzatib borish davlatning bandlik va ijtimoiy himoya siyosati samaradorligini baholash hamda tegishli qarorlarni asoslash uchun zarur axborot bazasini shakllantiradi.

Mavjud ilmiy tadqiqotlarni umumlashtirish shuni ko‘rsatadiki, mehnat bozori va aholi bandligini o‘rganishda hududiy yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki mehnat resurslarining shakllanishi, iqtisodiy faollik, bandlik va ishsizlik ko‘rsatkichlari hududlarning demografik hamda iqtisodiy xususiyatlariga qarab farqlanadi. Shu sababli mazkur tadqiqotda Surxondaryo viloyatining mehnat bozori ko‘rsatkichlarini dinamik statistik tahlil qilish, ular o‘rtasidagi o‘zgarishlarni aniqlash va hududiy bandlik holatiga statistik baho berishga asosiy e’tibor qaratiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Mazkur tadqiqotda Surxondaryo viloyatida aholi bandligi va mehnat bozori holatini statistik baholash maqsadida statistik kuzatish, taqqoslash, guruhlash, dinamik qatorlar tahlili hamda nisbiy ko‘rsatkichlarni hisoblash usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi hamda Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasining mehnat bozori va bandlikka oid rasmiy statistik ma’lumotlari tashkil etadi. Tahlilda mehnat resurslari, iqtisodiy faol aholi, band aholi, ishsiz aholi va iqtisodiy nofaol aholi ko‘rsatkichlariga asosiy e’tibor qaratildi.

Mehnat bozori holatini baholashda mutlaq ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda nisbiy statistik ko‘rsatkichlardan ham foydalanildi. Jumladan, iqtisodiy faollik darajasi iqtisodiy faol aholining tegishli aholi soniga nisbati orqali aniqlanib, aholining mehnat bozoridagi ishtirokini ifodalaydi:

$$K_{ifd} = \frac{A_{ifa}}{A} * 100 \qquad (1)$$

bu yerda: K_{ifd}— iqtisodiy faollik darajasi, %; A_{ifa}— iqtisodiy faol aholi soni; **A** — hisoblash uchun qabul qilingan tegishli aholi soni.

Bandlik darajasi band aholi sonining tegishli aholi soniga nisbati orqali aniqlanadi va mehnat resurslaridan foydalanish darajasini tavsiflaydi:

$$K_{bd} = \frac{A_{ba}}{A} * 100 \qquad (2)$$

bu yerda: K_{bd} — bandlik darajasi, %; A_{ba} — band aholi soni; **A** — hisoblash uchun qabul qilingan tegishli aholi soni.

Mehnat bozorining muhim ko‘rsatkichlaridan yana biri ishsizlik darajasi bo‘lib, u ishsiz aholi sonining iqtisodiy faol aholiga nisbati orqali aniqlanadi:

$$K_{id} = \frac{A_{ia}}{A_{ifa}} * 100 \qquad (3)$$

bu yerda: K_{id} — ishsizlik darajasi, %; A_{ia}— ishsiz aholi soni; A_{ifa} — iqtisodiy faol aholi soni.

Tadqiqotda Surxondaryo viloyati mehnat bozorida uzoq muddatli tendensiyalarni aniqlash maqsadida 2015–2024-yillarni qamrab oluvchi o‘n yillik statistik davr tanlab olindi. Mazkur davr bo‘yicha mehnat resurslari, iqtisodiy faol aholi, band aholi, ishsiz aholi va iqtisodiy nofaol aholi ko‘rsatkichlarining dinamik qatorlari shakllantirildi. Ko‘rsatkichlarning bazis va zanjirsimon o‘zgarishlari, mutlaq o‘zgarishi hamda nisbiy ko‘rsatkichlari asosida Surxondaryo viloyati mehnat bozorida yuz bergan asosiy tendensiyalar statistik jihatdan baholandi. [2]

Mazkur metodologik yondashuv mehnat bozoridagi o‘zgarishlarni mutlaq ko‘rsatkichlar bilan cheklanmasdan, ularning o‘zaro nisbatlari va dinamikasi asosida kompleks baholash imkonini beradi. Natijada Surxondaryo viloyatida mehnat

resurslaridan foydalanish holati, aholining iqtisodiy faolligi hamda bandlik va ishsizlik jarayonlarining asosiy tendensiyalarini aniqlash uchun zarur statistik asos shakllantiriladi.

ASOSIY QISM. Surxondaryo viloyatida mehnat bozorining shakllanishi va rivojlanishi hududdagi demografik jarayonlar, mehnat resurslari hajmi, aholining iqtisodiy faolligi hamda iqtisodiyotda yangi ish o‘rinlarini yaratish imkoniyatlari bilan uzviy bog‘liq. Aholi sonining o‘sib borishi mehnat bozoriga kirib kelayotgan ishchi kuchi taklifining kengayishiga olib keladi. Bu esa mavjud mehnat resurslaridan samarali foydalanish, aholining iqtisodiy faolligini oshirish va barqaror bandlikni ta’minlash masalalarining ahamiyatini kuchaytiradi. Hududiy mehnat bozori holatini statistik baholashda mehnat resurslari, iqtisodiy faol aholi, iqtisodiyotda band bo‘lganlar, ishsizlar va iqtisodiy nofaol aholi ko‘rsatkichlari muhim o‘rin tutadi. Ushbu ko‘rsatkichlarning o‘zaro bog‘liq holda o‘rganilishi mehnat resurslarining shakllanishi va ulardan foydalanish samaradorligini baholash, shuningdek, mehnat bozoridagi tarkibiy o‘zgarishlarni aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqotda Surxondaryo viloyati mehnat bozorining uzoq muddatli rivojlanish tendensiyalarini aniqlash maqsadida 2015–2024-yillar oralig‘idagi statistik ma’lumotlardan foydalanildi. O‘n yillik davrning tanlanishi alohida yillardagi qisqa muddatli o‘zgarishlar bilan cheklanmasdan, bandlik va ishsizlik jarayonlarining umumiy yo‘nalishini aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, mazkur davr mehnat bozorida yuz bergan miqdoriy va tarkibiy siljishlarni o‘zaro taqqoslash hamda ularning barqarorligini statistik jihatdan baholash uchun yetarli kuzatuvlar qatorini shakllantiradi.[2]

2015–2024-yillar davomida Surxondaryo viloyatining mehnat resurslari hajmida umumiy o‘sish tendensiyasi kuzatilgan. Shu bilan birga, iqtisodiy faol aholi sonining o‘zgarishi bir tekis kechmagan. Bu holat mehnat resurslari hajmining ko‘payishi avtomatik ravishda iqtisodiy faol aholi sonining mutanosib ravishda ortishini anglatmasligini ko‘rsatadi. Shuning uchun mehnat bozori holatini baholashda mutlaq ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda iqtisodiy faollik, bandlik va ishsizlik darajalarining o‘zgarishini ham hisobga olish zarur. Tahlil qilinayotgan davrda iqtisodiyotda band bo‘lgan aholi soni, ishsizlar soni va ishsizlik darajasida ham sezilarli o‘zgarishlar yuz bergan. Ayniqsa, mehnat bozoridagi bandlik va ishsizlik ko‘rsatkichlarining turli yillardagi o‘zgarish sur’atlari hududda ishchi kuchiga talab va taklif nisbatining doimiy ravishda bir xil bo‘lmaganligini ko‘rsatadi. Mazkur jarayonlarni dinamik qatorlar asosida o‘rganish qaysi davrlarda mehnat bozori ko‘rsatkichlarida ijobiy yoki salbiy siljishlar yuz berganini aniqlash imkonini beradi.

Mehnat resurslarining iqtisodiy faol va iqtisodiy nofaol aholi o‘rtasida taqsimlanishi ham hududiy mehnat bozorini baholashda muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy nofaol aholi ulushining o‘zgarishi mehnat resurslarining mehnat bozoridagi ishtirok darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli bandlik va ishsizlik ko‘rsatkichlarini iqtisodiy faollik bilan birgalikda tahlil qilish mehnat resurslaridan foydalanish holatini yanada to‘liq ifodalash imkonini beradi.

Surxondaryo viloyatida 2015–2024-yillarda mehnat bozori asosiy ko‘rsatkichlarida yuz bergan o‘zgarishlarni tizimli baholash maqsadida iqtisodiy faol aholi, band aholi, ishsiz aholi va ishsizlik darajasi bo‘yicha dinamik qator shakllantirildi. Mazkur ko‘rsatkichlarning yillar kesimidagi qiymatlari 1-jadvalda keltirilgan.

Yillar	Iqtisodiy faol aholi, ming kishi	Iqtisodiyotda bandlar, ming kishi	Ishsizlar, ming kishi	Ishsizlik darajasi, %
2015	*984,5*	*932,7*	*51,8*	*5,3*
2016	*1 018,3*	*964,4*	*53,9*	*5,3*
2017	*1 062,7*	*1 001,0*	*61,7*	*5,8*
2018	*1 089,3*	*987,6*	*101,7*	*9,3*
2019	*1 128,8*	*1 016,8*	*112,0*	*9,9*
2020	*1 108,3*	*985,5*	*122,8*	*11,1*
2021	*1 115,8*	*1 001,9*	*114,0*	*10,2*
2022	*1 105,3*	*1 003,0*	*102,3*	*9,3*
2023	*1 091,8*	*1 011,2*	*80,6*	*7,4*
2024	*1 083,1*	*1 018,7*	*64,4*	*5,9*

1-jadval. Surxondaryo viloyatida mehnat bozori asosiy ko‘rsatkichlarining dinamikasi (2015–2024)-yillar [2]

STATISTIK TAHLIL VA NATIJALAR. Surxondaryo viloyatida 2015–2024-yillar davomida mehnat bozori ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi bir xil yo‘nalishda kechmagan. Tadqiqot davrining boshlang‘ich va yakuniy ko‘rsatkichlarini taqqoslash natijasida iqtisodiy faol aholi soni 2015-yildagi 984,5 ming kishidan 2024-yilda 1 083,1 ming kishiga yetib, 98,6 ming kishiga yoki 10,0 foizga oshgani aniqlandi. Biroq mazkur o‘sish asosan davrning dastlabki yillariga to‘g‘ri keladi. Iqtisodiy faol aholi soni 2019-yilda 1 128,8 ming kishiga yetganidan keyin pasayish tendensiyasi kuzatilib, 2024-yilda 1 083,1 ming kishini tashkil etgan. Bu 2019–2024-yillar oralig‘ida iqtisodiy faol aholi sonining 45,7 ming kishiga yoki qariyb 4,0 foizga qisqarganini ko‘rsatadi.

Band aholi soni bo‘yicha uzoq muddatli dinamika nisbatan ijobiy yo‘nalishga ega. 2015-yilda iqtisodiyotda 932,7 ming kishi band bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 1 018,7 ming kishiga yetgan. Natijada o‘n yillik davr davomida band aholi soni 86,0 ming kishiga yoki 9,2 foizga ko‘paygan. Shu bilan birga, bandlik dinamikasi ham barcha yillarda bir tekis kechmagan. Jumladan, 2020-yilda band aholi sonining 985,5 ming kishigacha kamayishi kuzatilgan bo‘lsa, keyingi yillarda ko‘rsatkich izchil tiklanib, 2024-yilda tahlil qilinayotgan davrdagi eng yuqori qiymatga yetgan.

Ishsiz aholi sonining dinamikasi mehnat bozoridagi o‘zgarishlarning yana bir muhim jihatini namoyon etadi. 2015–2017-yillarda ishsizlar soni nisbatan past darajada qayd etilgan bo‘lsa, 2018-yildan boshlab ko‘rsatkichda sezilarli o‘zgarish yuz bergan. Bunda statistik hisob va mehnat bozori ko‘rsatkichlarini aniqlash metodologiyasidagi o‘zgarishlarni ham hisobga olish zarur. Keyingi davrda ishsizlar soni 2020-yilda 122,8 ming kishiga yetib, o‘n yillik davrning eng yuqori ko‘rsatkichini tashkil etgan. 2021-yildan boshlab esa pasayish tendensiyasi shakllangan va 2024-yilda ishsizlar soni 64,4 ming kishigacha kamaygan. Shunday qilib, 2020–2024-yillar davomida ishsizlar soni 58,4 ming kishiga yoki 47,6 foizga qisqargan.

Ishsizlik darajasi dinamikasi ham yuqoridagi tendensiyani tasdiqlaydi. Ushbu ko‘rsatkich 2020-yilda 11,1 foizni tashkil etib, tahlil davridagi eng yuqori darajaga yetgan. Keyingi yillarda esa ishsizlik darajasining muntazam pasayishi kuzatilgan: 2021-yilda 10,2 foiz, 2022-yilda 9,3 foiz, 2023-yilda 7,4 foiz va 2024-yilda 5,9 foiz. Natijada 2020–2024-yillarda ishsizlik darajasi 5,2 foiz punktga kamaygan. Ushbu holat pandemiya davridan keyingi yillarda viloyat mehnat bozorida bandlik ko‘rsatkichlarining bosqichma-bosqich yaxshilanganini ko‘rsatadi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, 2015–2024-yillardagi mehnat bozori dinamikasini shartli ravishda uch bosqichga ajratish mumkin. Birinchi bosqich — 2015–2019-yillarda iqtisodiy faol aholi va bandlar sonining umumiy o‘sishi bilan tavsiflanadi. Ikkinchi bosqich — 2020-yilda bandlikning qisqarishi va ishsizlikning eng yuqori darajaga chiqishi bilan ajralib turadi. Uchinchi bosqich — 2021–2024-yillarda band aholi sonining tiklanishi hamda ishsizlar soni va ishsizlik darajasining izchil kamayishi bilan tavsiflanadi. Bunday davrlashtirish hudud mehnat bozoridagi uzoq muddatli tendensiyalar bilan qisqa muddatli o‘zgarishlarni o‘zaro farqlash imkonini beradi.

Umuman olganda, statistik tahlil Surxondaryo viloyatida so‘nggi yillarda bandlik ko‘rsatkichlarining yaxshilanish tendensiyasi shakllanganini ko‘rsatmoqda. Biroq iqtisodiy faol aholi sonining 2019-yildan keyingi kamayishi alohida e’tibor

talab qiladi. Chunki ishsizlik darajasining pasayishi faqat yangi bandlik imkoniyatlarining kengayishi bilan emas, balki aholining iqtisodiy faolligi, mehnat migratsiyasi, demografik tarkib va mehnat bozoridagi boshqa tarkibiy jarayonlar bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shu sababli ishsizlik darajasining pasayishini mehnat bozori holatining yagona mezoni sifatida emas, balki bandlik va iqtisodiy faollik ko‘rsatkichlari bilan birgalikda baholash maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Surxondaryo viloyatida aholi bandligi va mehnat bozori ko‘rsatkichlarining 2015–2024-yillardagi dinamikasini statistik tahlil qilish natijalari hudud mehnat bozorida sezilarli miqdoriy va tarkibiy o‘zgarishlar yuz berganligini ko‘rsatdi. Tadqiqot davrida iqtisodiy faol va band aholi sonining uzoq muddatli dinamikasi bir xil yo‘nalishda kechmagan bo‘lsa-da, so‘nggi yillarda bandlik ko‘rsatkichlarining yaxshilanishi hamda ishsizlik darajasining pasayishi kuzatilgan. Ayniqsa, 2020-yildan keyingi davrda ishsiz aholi sonining qisqarishi va band aholi sonining tiklanib borishi viloyat mehnat bozoridagi ijobiy tendensiyalardan biri sifatida baholanishi mumkin. Shu bilan birga, iqtisodiy faol aholi sonining 2019-yildan keyingi davrda kamayish tendensiyasiga ega bo‘lishi mehnat bozorining holatini faqat ishsizlik darajasi orqali baholash yetarli emasligini ko‘rsatadi. Ishsizlikning pasayishi bandlik imkoniyatlarining kengayishi bilan bir qatorda aholining iqtisodiy faolligi, tashqi va ichki mehnat migratsiyasi, demografik jarayonlar hamda iqtisodiy nofaol aholi tarkibidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shu sababli hududiy mehnat bozorini baholashda bandlik, ishsizlik va iqtisodiy faollik ko‘rsatkichlaridan kompleks foydalanish maqsadga muvofiq.

Tahlil natijalari Surxondaryo viloyatida mehnat resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirish zarurligini ko‘rsatadi. Buning uchun hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuvidan kelib chiqib yangi va barqaror ish o‘rinlarini yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining bandlik yaratish imkoniyatlarini qo‘llab-quvvatlash, sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish sohalarida mehnat talabini oshirish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, mehnat bozoriga yangi kirib kelayotgan yoshlarni kasbiy tayyorlash va ularning malakasini ish beruvchilar talabi bilan muvofiqlashtirish bandlik siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi lozim. Shuningdek, mehnat bozoridagi hududiy tafovutlarni muntazam statistik kuzatib borish, shahar va tumanlar kesimida ishchi kuchiga bo‘lgan talab va taklifni baholash hamda bandlik dasturlarini hududlarning real ehtiyojlaridan kelib chiqib shakllantirish maqsadga muvofiq. Mehnat bozori to‘g‘risidagi statistik axborotlarning tezkorligi va qamrovini oshirish esa bandlik siyosati samaradorligini baholash hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun yanada mustahkam axborot bazasini yaratadi.

Umuman olganda, Surxondaryo viloyatida mehnat bozori ko‘rsatkichlarining o‘n yillik dinamikasi so‘nggi davrda bandlikning oshishi va ishsizlikning qisqarishi bilan tavsiflanadi. Kelgusida ushbu ijobiy tendensiyalarni barqaror saqlash mehnat resurslaridan samarali foydalanish, iqtisodiy faol aholi uchun munosib va barqaror ish o‘rinlarini kengaytirish hamda hududiy mehnat bozorining talab va taklif mutanosibligini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni izchil amalga oshirishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2024 – yil 16-dekabr kuni banklar ishtirokida mahallalarda aholi bandligini ta’minlash va daromadli qilishga qaratilgan ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig‘ilishidan.

2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi.

3. Jo‘rayev F., Aralov G‘. Mehnat bozorini shakllantirishning hududiy manbalari tahlili // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2024. – J. 2, № 3. – B. 39–48. DOI: 10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss3-pp39-48.

4. Islomov B. Surxondaryo viloyatida mehnat bozori rivojlanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillarni ekonometrik modellashtirish // Green Economy and Development. – 2026. – J. 4, № 5. DOI: 10.5281/zenodo.20234664.

5. International Labour Organization. ILOSTAT: Statistics on Employment. – International Labour Organization, Department of Statistics.

6. International Labour Organization. ILOSTAT: Statistics on Unemployment and Labour Underutilization. – International Labour Organization, Department of Statistics.

7. International Labour Organization. Labour Force Statistics (LFS and RURBAN databases): Concepts and Definitions. – ILOSTAT.